

Obektlarni foydalanishga tayyor holda qurishga doir pudrat shartnomasi

2022 y. «10» 11

74-3-44-OB/2022-son

O'smat shaxarchasi

Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Baxmal tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (buyurtmachining nomi) nomidan Nizom asosida ish ko'rvuchi (ustav, nizom, ishonchnama) **Abdullaev Mingboy Suyunovich** bir tomondan va keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan **“MANSUR STROY HOUSES”** MCHJ nomidan Nizom (ustav, nizom, ishonchnama) asosida ish ko'rvuchi **Sheraliev O'ktam ikkinchi** tomondan **Baxmal tumani G'allakon MFY O'damali va Balqi qishlog'i ichki yo'llarini (Asfaltlash)** ta'mirlash obektni foydalanishga tayyor holda qurishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. Ta'riflar

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

ijro hujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda obekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatlari konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnomalar bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi.

Obektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmanan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha obektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. Shartnoma mavzusi

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq **Baxmal tumani G'allakon MFY O'damali va Balqi qishlog'i ichki yo'llarini (Asfaltlash)** ta'mirlash bo'yicha smeta loyihasida ko'zda tutilgan ishni foydalanishga tayyor holda tamirlash ishlarni bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovnini amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori **(03.11.2022 yildagi 171349-son bayonnomasi)**, bilan tasdiqlangan ishlar qiymatini barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **1 155 569 644 (Bir milliard bir yuz ellik besh million besh yuz oltmishtoqqiz ming olti yuz qirq to'rt)** so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymatini uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

obektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. Pudratchining majburiyatları

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga ilova qilingan smeta hujjatlariga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

Smeta hujjatlariga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;

qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

mazkur shartnoma bo'yicha obektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab **o'n kun muddatda** qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda obektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

V. Buyurtmachining majburiyatları

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini obekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini **besh kun muddatda** ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga shartnomaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab **ikki kun davomida** Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

VI. Ishlarni bajarish muddatlari

10. Shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

11. Pudratchi birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

12. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqtini ishlar boshlangan kundan e'tiboran **30 kunni** tashkil etadi.

13. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. To'lovlar va hisob-kitoblar

14. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlarni umumiyligi joriy qiymatining 30 foizi miqdorida avans o'tkazadi.

15. Obektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 70 foizi uchun Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va obekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin 30 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

16. Pudratchi obekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnomaga bo'yicha obektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Obekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar obektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnomaga bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnomaga kuchga kirgan kundan boshlab **o'ttiz kun** mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlarning haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

VIII. Ishlarning bajarish

18. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlarning sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalilanligi materiallar va asbob-uskunalarining shartnomaga shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

19. Texnik auditor ishlarning bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

20. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarning amalga oshirish chog'ida paydo bo'lувчи masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

21. Pudratchi ishlarning bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan obektida ishlarning bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

22. Qurilish maydonida ishlarning bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtinchalashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

23. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spesifikatsiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

24. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpunderchilarini tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarning ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarning kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

25. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarning supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydonidan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

IX. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

26. Agar ushbu shartnomaga bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlarning mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarilmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnomaga bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlarning yuzaga keltingan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

27. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlarini bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarning etirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilib qilishini muhokama qiladilar.

28. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnomaga bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

X. Qurilishi tugallangan obektni qabul qilib olish

29. Qurilishi tugallangan obektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo‘lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan obektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

30. Obektlar ularning foydalanishga tayyorligi to‘g‘risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 5 ish kuni mobaynida qabul qilib olinadi.

31. Qabul qilib olingan paytdan boshlab obekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XI. Kafolatlar

32. Pudratchi:

barcha ishlari to‘liq hajmda va mazkur shartnomasi shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

loyiha hujjatlariga hamda qurilish me’yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

o‘zi tomonidan qurilish uchun qo‘llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko‘rsatilgan sertifikatsiyalarga, texnik reglamentlar yoki standartlarga muvofiqligini;

ishlarni qabul qilish va obektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o‘z vaqtida bartaraf qilishni;

obektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

33. Obekt bo‘yicha bajarilgan ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan obektni qabul qilib olish to‘g‘risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 1 yil etib belgilanadi.

34. Agar obektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi.

Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o‘z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko‘rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur kamchiliklar qiymatida jarima undirib olishga haqli.

XII. Shartnomani bekor qilish

35. Buyurtmachi:

shartnomaga kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog‘liq bo‘limgan sabablarga ko‘ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko‘p vaqtga kechiktirilganda;

ishlarning tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko‘paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioxha etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnomasi shartlari qurilish me’yorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo‘yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

36. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog‘liq bo‘limgan sabablarga ko‘ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to‘xtatib qo‘yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo‘yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

37. Shartnomasi bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo‘sma qaroriga ko‘ra tughallagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlarning qiymatini Pudratchiga to‘laydi.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo‘lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to‘laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIII. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

41. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

42. Mazkur shartnomada ko‘rsatilgan o‘z majburiyatlariga riousha qilmaganligi, o‘z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.4 foizi miqdorida penya to‘laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlari yoki ko‘rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to‘lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

43. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlari hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o‘zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning **20 foizi miqdorida jarima** to‘laydi.

44. Pudratchi obektni o‘z vaqtida ishga tushirish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.5 foizi miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi obekti shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o‘z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlari qiymatining 0.5 foizi miqdorida penya to‘laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi sifatsiz bajarilgan ishlari qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to‘lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko‘rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

45. Shartnoma bo‘yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo‘qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

46. Muddat o‘tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to‘lash tomonlarni ushbu majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

XIV. Tomonlarning korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha majburiyatları.

47. Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga riousha etishini ta‘minlaydi; ya’ni tomonlar bir-birlariga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

48. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalari buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darxol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telfoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish huquqigaega va murojaatni olgan tomon 10 (un) ish kuni mobaynida tushuntirish berishi yoki o‘z fikrini bildirishi mumkin.

49. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xaf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption xolatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

49. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

XV. Nizolarni hal etish tartibi

50. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'lik holda taraflar o'rtaida kelib chiqadigan barcha nizolar yozma talabnomaga bildirish yo'li bilan, belgilangan tartibda hal etiladi.

51. Bildirilgan talabnomaga qonunda belgilangan 15 (o'n besh) kun muddat ichida javob olinmagan yoki talablar qanoatlantirilmagan taqdirda, o'zini xuquqi poymol qilingan deb hisoblovchi tomon nizoni hal qilish uchun da'vo arizasi bilan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy kodeksi 33-moddasida belgilangan tartibda tegishli iqtisodiy sudga murojaat qilishga xaqlı.

XVI. Alovida shartlar

52. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtaidiagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zarो kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

53. Pudratchi qurilish obektiga yoki uning alovida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatsiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomoniga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

54. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

55. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtaidiagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahslashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

56. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

57. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

58. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XVII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

Buyurtmachi :	Pudratchi:
Baxmal tuman Obodonlashtirish boshqarmasi O'smat shaxarchasi Samarqand ko'chasi ShXV 401722860082047045204110004 INN 201 029502 OKONX 90211 O'ZB.Res.Moliya vazirligi YaXV 2340 2000 3001 0000 1010 Markaziy bank Toshkent shaxri XKKM INN 201 122 919 MFO 00014  Raxbar	"MANSUR STROY HOUSES" MCHJ Jizzax viloyati Zomin shaxri Bunyodkor MFY A.Temur ko'chasi 7 uy X/r 2020 8000 5051 4379 3001 Agrobank Zomin filiali INN 306 867 984 MFO 00131  Raxbar

M.Abdullaev

Sheraliev O'ktam

«ТАСДИКЛАЙМАН»
Бахмал тумани Ободонлаштириш
бошқармаси бошлиғи
М.Абдуллаев
«7» ноябр 2022 йил

Бахмал тумани Ободонлаштириш бошқармаси openbudget маблағлари хисобидан
Бахмал тумани **Фаллакон МФЙ Ўдамали ва Балқи қишлоғи ички йўлларини**
(Асфалтлаш) таъмирлаш учун пудратчини аниқлаш бўйича танлов ўтказиш комиссиясининг

МАЖЛИС БАЁННОМАСИ № 11

2022 йил « 7» ноябр

Ўсмат шахарчаси

Кун тартиби:

Ахборот парталига жойлаштирилган эълон тўғрисида маълумот


1. Эълон берилган сана: **27.08.2022** йил
2. Берилган эълон тартиб рақами: **22110012171349**
3. **Бюртма предмети:** Бахмал тумани **Фаллакон МФЙ Ўдамали ва Балқи қишлоғи ички йўлларини** (Асфалтлаш) таъмирлаш
4. Ўлчов бирлиги: **Хизат**
5. Бирлик нархи: **Сум**
6. Берилган миқдори: **1**
7. Эълон берилиш нархи: **1 155 569 644**

Бахмал тумани **Фаллакон МФЙ Ўдамали ва Балқи қишлоғи ички йўлларини**
(Асфалтлаш) таъмирлаш учун пудратчини аниқлаш бўйича 2 кун мобайнида комиссия
аъзоларига ва Бахмал тумани Ободонлаштириш бошқармасига хеч қандай шикоят ва
этиrozлар келиб тушмади “MANSUR STROY HOUSES” МЧЖ томонидан Бахмал
тумани **Фаллакон МФЙ Ўдамали ва Балқи қишлоғи ички йўлларини** (Асфалтлаш)
таъмирлаш бўйича тақдим этилган таклифни энг мақул ва мақсадга мувофиқ деб
топилган ва бу талабгор танлов галиби деб топилган.


М.Абдуллаев


Н.Кулиев


А.Нарматов


Р.Султонов


Б.Атамуродов

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY**

XULOSA

DO3450286637

1. Loyihaning turi : Sharfnoma

2. Loyihaning nomi: **Xo‘jalik munosabatlari**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Baxmal tumani obodonlashtirish bo‘limi tomonidan 07.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Baxmal tumani
yuridik markaz
markaz rahbari:**



Z.T.XOLJIGITOV

08.11.2022

**171349 лот юзасидан шаклланган дастлабки
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон
баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичидаги иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътиrozлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

Муҳокама тугаган сана:

10.11.2022 11:41

Комиссия раиси:

ABDULLAYEV MINGBOY SUYUNOVICH

VOTIQLIJOXTI

2502.11.80



Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 171349 на приобретение Жиззах вилояти Бахмал тумани Галлакон махалласи Удамали ва Балки кишлогидаги ички йулларни жорий таъмирлаш (асфалтълаш)

Способ проведения электронный

Дата 03.11.2022

Время рассмотрения 03.11.2022 09:15

Закупочная комиссия Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	ABDULLAYEV MINGBOY SUYUNOVICH	Raxbar	Baxmal TOB
Секретарь комиссии	MUXTOROV XAMDAM XOLIQULOVICH	Bosh xisobchi	Baxmal TOB
Член комиссии	KO'LIYEV NURIDDIN IBRAGIMOVICH	Bosh muxandis	Baxmal TOB
Член комиссии	NARMATOV AZAMAT XAZRATQULOVICH	Infartuzilma obyektlarini saqlash bulimi boshligi	Baxmal TOB
Член комиссии	SULTANOV RUSTAM SHAMSIDINOVICH	Obodonlashtirish obyektlarini saqlash bulimi boshligi	Baxmal TOB
Член комиссии	ATAMUROTOV BERDI ABDUROXMONOVICH	Texnik nazoratchi	Baxmal TOB

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 03.11.2022 года № лота 171349.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 98.00 / Весовой коэф. ценовой части: 2.00)

Мин. балл: 30

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуги по ремонту и содержанию автомобильных дорог
Подробное описание	Жиззах вилояти Бахмал тумани Галлакон махалласи Удамали ва Балки кишлогидаги ички йулларни жорий таъмирлаш (асфалтълаш) (401722860082047045204110004 ст 4233100)
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	1157 569 644.00
Стартовая сумма	1157 569 644.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Талабгор ташкилотнинг автомобил йуллари, куприклар соҳасида электрон рейтинги

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгор ташкилотнинг автомобил йуллари, куприклар соҳасида электрон рейтинги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MCHJ MD STROYDOR	20	и洛ва килинди	14	Экспертная		
MUSLUMBEK STROY GROUP MCHJ	20	базадан олинган электрон рейтинг маълумоти и洛ва килинди	15	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	20	Рейтинг	19	Экспертная		

Критерий №2 Талабгор ташкилотнинг зарур ишчи ходимлари тугрисида маълумот. QR кодли mehnat.uz сайтидан олиниши керак

Тип: Текстовое значение

Описание: Талабгор ташкилотнинг зарур ишчи ходимлари тугрисида маълумот. QR кодли mehnat.uz сайтидан олиниши керак

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MCHJ MD STROYDOR	25	и洛ва килинди	20	Экспертная		
MUSLUMBEK STROY GROUP MCHJ	25	ходимлар рўйхати меҳант вазирлигидан берилган маъсус гувоҳномалар билан и洛ва қилинди	20	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	25	Ишчи ходимлар малумоти	23	Экспертная		

Критерий №3 талабгор ташкилот курсатилган барча ишларни уз вактида сифатли бажариш учун зарур маъсус техникалари ва кичик механизмларига эга эканлиги тугрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: талабгор ташкилот курсатилган барча ишларни уз вактида сифатли бажариш учун зарур маъсус техникалари ва кичик механизмларига эга эканлиги тугрисида маълумот

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MCHJ MD STROYDOR	30	и洛ва килинди	25	Экспертная		
MUSLUMBEK STROY GROUP MCHJ	30	балансда мавжуд транспорт воситалари ва зарур механизмлар рўйхати ва тех.паспортлари и洛ва қилинди	24	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	30	Техникалар малумоти	29	Экспертная		

Критерий №4 Солик ва мажбурий туловларданカリздорлиги мавжуд эмаслиги хамда шу кунга кадар йул соҳасида ишлар тугрисида шартнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Солик ва мажбурий туловлардан кариздорлиги мавжуд эмаслиги хамда шу кунга кадар йул сохасида ишлар тугрисида шартнома

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MCHJ MD STROYDOR	25	маълумот илова килинди	22	Экспертная		
MUSLUMBEK STROY GROUP MCHJ	25	солиқ базасидан олинган солиқ ва бошқа тўловлардан қарздорлиги йўқлиги тўғрисида ва иш тажрибаси маълумот илова қилинади	22	Экспертная		
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	25	Бугунги кун холатига солик ва бошка идоралардан карздорлик мавжуд эмас	25	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
MCHJ MD STROYDOR	1 157 569 644.00	1 100 000 000.00 UZS	1 100 000 000.00	00.00	1 100 000 000.00	02.11.2022 11:38:33	2
MUSLUMBEK STROY GROUP MCHJ	1 157 569 644.00	1 157 000 000.00 UZS	1 157 000 000.00	00.00	1 157 000 000.00	02.11.2022 14:56:46	1.90147
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	1 157 569 644.00	1 155 569 644.00 UZS	1 155 569 644.00	00.00	1 155 569 644.00	02.11.2022 15:25:13	1.90382

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
MCHJ MD STROYDOR	79.38	2	81.38
MUSLUMBEK STROY GROUP MCHJ	79.38	1.90147	81.28147
MANSUR STROY HOUSES MCHJ	94.08	1.90382	95.98382

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 171349 от 03.11.2022 года на приобретение Жиззах вилояти Бахмал тумани Галлакон махалласи Удамали ва Балки кишлогидаги ички йулларни жорий таъмирлаш (асфальтлаш) определила победителем:

MANSUR STROY HOUSES MCHJ
306867894

и резервный исполнитель: MCHJ MD STROYDOR (305400494)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	ABDULLAYEV MINGBOY SUYUNOVICH	Согласен	
Член комиссии	KO'LIYEV NURIDDIN IBRAGIMOVICH	Согласен	
Член комиссии	NARMATOV AZAMAT XAZRATQULOVICH	Согласен	
Член комиссии	SULTANOV RUSTAM SHAMSIDINOVICH	Согласен	
Член комиссии	ATAMUROTOV BERDI ABDUROXMONOVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП